

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti
rektori

X.B. Yunusov



2024-yil "02" 08

**PARRANDA GO'SHTI VA TUXUM YETISHTIRISHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	- Qishloq xo'jaligi
Mutaxassislik:	70810801	— Parrandachilik

Samarqand-2024

Fan/modul kodi PGTYIT1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistrantlarga turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarida parhez tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishni texnologik jarayonlari, asoslari, ekologik toza, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish zahiralari o'rganish yuzasidan nazariy va amaliy bilimlar yig'indisi bilan qurollantirib, ularga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, turli shakldagi parrandachilik xo'jaliklarini tashkil etish, istiqbolli parrandalarni urchitish, ko'paytirish, oziqlantirish, parranda mahsulot ishlab chiqarish, mahsulotlarni sifatiga binoan tabaqalash, kategoriyalarga ajratish, saqlash texnologik jarayonlarini joriy etish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish istiqbollari</p> <p>Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish istiqbollarining jadallashishi, talabni oshishi, oziqalarga nisbatan yuqori sifatli arzon tuxum yetishtirish, qisqa vaqt ichida qilingan xarajatlarni qoplanishi hamda aholini tuxum va parranda go'tiga bo'lgan talabining qondirilishi.</p> <p>2-mavzu. Turli mulk shakldagi parrandachilik xo'jaliklarida tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish</p> <p>Turli mulk shakldagi parrandachilik xo'jaliklarida tuxum va parranda go'shti ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarni shakllantirish asoslari, ularda mahsulot ishlab chiqarish xususiyatlari, turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarining tuxum ishlab chiqarishdagi tutgan o'rni, ahamiyati, holati va istiqbollari.</p>				

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Xususiy zootexniya" kafedrasida dotsenti b.f.n. E.A.Ermatov va Xususiy zootexniya kafedrasida assistenti D.M.Ibragimovlar tomonidan 70810801-Parrandachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan kelib chiqqan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan ta'minlash, yetarli miqdorda parranda tuxumi va go'sht mahsulotlari, parrandalar bosh sonini ko'paytirish, ayniqsa ularning mahsuldorligini oshirishni taqazo etadi. Shu boisdan parrandalarning yangi zotlari, krosslari, tizimlardan foydalanish, naslchilik ishlari, mahsuldorligini muttasil oshirish, oziqa bazasini yaratish, zaxiralarni topish, kam oziqa va mexnat sarflab, ekologik toza parhez parranda go'shti ishlab chiqarish texnologiyasini nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lishi lozim.


Dasturning "Kirish" qismida turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarida dunyoga mashxur go'sht yo'nalishida parrandalardan foydalanish, sifatli go'sht ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha mos bilim, o'qitish uslubi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Dasturning "Asosiy qism"da, sanoat va nodavlat xo'jaliklari sharoitida go'sht yo'nalishidagi parrandalarni saqlash usullari, nasilli tuxumbob, go'shtbop parrandalarni xo'jaliklarda yetishtirish, yetishtirilgan, sotib olingan va oziqa zaxiralari asosida to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil qilish, ekologik toza parranda go'shti va tuxum yetishtirish samaradorligini aniqlash evaziga parranda go'shti ishlab chiqarish uchun ma'qul parranda krosslaridan foydalanish va ilg'or ish tajribalari, texnologiyalarini o'rgatish nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

"Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, informatsion-pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, amaliy mashg'ulot darslarini ma'lum qismini sanoat va nodavlat parrandachilik xo'jaliklarida o'rgatishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta -maxsus ta'lim vazirligi "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanining dasturini tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi
ilmiy tadqiqot institutining ilmiy ishlari
bo'yich direktor o'rinbosari, q.x.f.d. BO'DIMLAR
(PhD), katta ilmiy xodimi



A.X.Xatamov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Xususiy zootexniya" kafedrasida dotsenti b.f.n. E.A.Ermatov va Xususiy zootexniya kafedrasida assistenti D.M.Ibragimovlar tomonidan 70810801-Parrandachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Parrandachilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, aholini parhez parranda go'shti va tuxum bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda parrandachilikka ixtisoslashtirilgan nodavlat xo'jaliklari soni ko'payib, aholi orasida sohaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Tuxum va go'sht yo'nalishidagi tovuqlarning istiqbolli krosslaridan hududlarimizga keltirilib, hozirgi kunda nafaqat parrandachilik korxonalarida, nodavlat xo'jaliklarida andozalarga yaqin mahsulotlari olinmoqda.

Dasturda "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanining talabalarga parrandachilik sohalarining rivojlanishi, istiqbollari, tasnifi, parrandalarning ajdodlaridan foydalanish, tana tuzilishi va mahsuldorligini bog'lash, rejali zotlar, liniyalar krosslar va ustunligini asoslash, muayyan sharoitlarda ulardan foydalanish, parrandalarni takomillashtirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha mos bilim, o'qitish uslubi bo'yicha ko'nikma va malakaga ega bo'lishida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.


Dasturning "Asosiy" qismida "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanidan fan dasturiga fanining shakllanishi tarixi va rivojlanish istiqbollari, parrandalarning ajdodlari; parrandalarning biologik xususiyatlari, ekstereri va konstitutsiyasi; -parrandalarni oziqlantirish xususiyatlari; -parrandalarni saqlash, parvarishlash va o'stirish; - qishloq xo'jalik parrandalari turlari, zotlari, tizimlari va krosslarning mahsuldorligini oshirish; - parrandachilikda naslchilik va seleksiya ishlarining yuritilishi; - qishloq xo'jalik parrandalarning tuxumlarini inkubatsiyalash xususiyatlarini o'rganish, tashkil qilish kabi mavzularni qamrab olgan.

"Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or pedagogik va zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, amaliy mashg'ulotlar davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi "Parranda go'shti va tuxum yetishtirishning innovatsion texnologiyalari" fanining dasturini tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyasi" kafedrasida professor

Sh.K.Amirov



3-mavzu. Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishda foydalanilayotgan parranda zotlari, liniya va krosslari

Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning hozirgi kunda zamonaviy zotlari, liniyalari va krosslaridan Lohmann (Germaniya), Xayseks, Bovans (Gollandiya), Xay - Layn (AQSH) va Rodonit - 3 (Rossiya). Go'sht yo'nalishidagi (Kornish, Brama, go'sht-tuxum yo'nalishidagi rod-ayland, nyu-gempsher, susseks, ovstrolorp, krosslari, "Ross-308", "Habbard F-15", "Kobb").

4-mavzular. Tuxum yo'nalishidagi parrandalarni oziqlantirishning ilmiy asoslari

Parrandalarni ikki turdagi oziqlantirishdan foydalanishni, kam oziq, mehnat sarflab ko'p miqdorda sifatli tuxum olishni ilmiy asoslari, turli yoshdagi parrandalar uchun omixta yem tarkibi, retseptlari, xo'jalikni oziqaga bo'lgan talabini hisoblash. Sifatli tuxum olishni ilmiy asoslari, turli yoshdagi parrandalar uchun omixta yem tarkibi, retseptlari, xo'jalikni oziqaga bo'lgan talabini hisoblash.

5-mavzular. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarni oziqlantirishning ilmiy asoslari

Parrandalarni ikki turdagi oziqlantirishdan foydalanishni, kam oziq, mehnat sarflab ko'p miqdorda sifatli tuxum olishni ilmiy asoslari, turli yoshdagi parrandalar uchun omixta yem tarkibi, retseptlari, xo'jalikni oziqaga bo'lgan talabini hisoblash. Sifatli tuxum olishni ilmiy asoslari, turli yoshdagi parrandalar uchun omixta yem tarkibi, retseptlari, xo'jalikni oziqaga bo'lgan talabini hisoblash.

6-mavzu. Sanoat parrandachilik korxonalarida tuxum ishlab chiqarish texnologiyasi

Tuxum yo'nalishidagi parrandachilik korxonalarida texnologik ish jarayonlari, sanoat asosidagi tovuqlar galasini bosh sonini yil davomida to'ldirish.

Bir me'yorda tuxum ishlab chiqarish, texnologik xarita. Ishlab chiqarilgan istemolli tuxumlarni saralash.

7-mavzu. Iste'molli tuxum ishlab chiqarishni texnologiyasi

Ixtisoslashgan sanoat, turli mulk parrandachilik xo'jaliklarida iste'molli tuxum ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari, shakllari, sexlari, o'zaro bog'liqligi, texnologik hisoblar, zootexnik, veterinariya talablar. Ishlab chiqarilgan istemolli tuxumlarni vazni bo'yicha saralash.

8-mavzu. Sanoat parrandachilik korxonalarida go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi

Go'sht yo'nalishidagi tovuqlar galasini to'ldirish uchun jo'jalarni o'stirish usullari, texnologik shaklini (tarx) tuzish, tahlil qilish va hisob-kitob ishlarini yuritish tartiblari. Bir me'yorda go'sht ishlab chiqarish, texnologik xarita. Ishlab chiqarilgan go'shtlarni saqlash va navlarga ajratish.

9-mavzu. Go'sht ishlab chiqarishni texnologiyasi

<p>Ixtisoslashgan sanoat, turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarida parhez parranda go'shti ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari, shakllari, sexlari, o'zaro bog'liqligi, texnologik hisoblar, zootexnik, veterinariya talablar.</p> <p>10-mavzu. Tovuqlar galasini to'ldirish uchun jo'ja o'stirish texnologiyasi</p> <p>Tuxum va go'sht yo'nalishidagi tovuqlar galasini to'ldirish uchun jo'jalarni o'stirish usullari, texnologik shaklini (tarx) tuzish, tahlil qilish va hisob-kitob ishlarini yuritish tartiblari. Bir me'yorda tuxum va go'sht ishlab chiqarish, texnologik xarita.</p> <p>11-mavzular. Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning ota-onalik galasidan inkubatsiyabob tuxum olish texnologiyasi</p> <p>Tuxum va go'sht yo'nalishdagi parrandalar ota-onalik galasini saqlash, parvarishlash va oziqlantirish usullari. Zootexnik, veterinariya-sanitariya talablar.</p> <p>Turli mulk shakldagi xo'jaliklarda, tuxumlarni inkubatsiyalash markazida, elevatorlarda tuxumlarni inkubatsiyalashni tashkil etish, tayyorlash va inkubatsiyalash rejasi.</p> <p>12-mavzular. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarning ota-onalik galasidan inkubatsiyabob tuxum olish texnologiyasi</p> <p>Turli mulk shakldagi xo'jaliklarda, tuxumlarni inkubatsiyalash markazida, elevatorlarda tuxumlarni inkubatsiyalashni tashkil etish, tayyorlash va inkubatsiyalash rejasi. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarni saqlash usullari, parranda go'shti ishlab chiqarishdagi ahamiyati, o'stirishning texnologik grafigi va samaradorligi.</p> <p>13-mavzular. O'rdak, tuxumi va go'shtini ishlab chiqarish texnologiyasi</p> <p>O'rdak tuxumi va go'shti yetishtirishning xususiyatlari, o'rdak jo'jalari xonalarda yoshi bo'yicha ko'chirmasdan bir kunligidan tortib to so'yish yoshiga yetguncha o'stirish, o'rdaklarni 10 kunligacha, 30 kunligacha va so'yishgacha qalin tushmada o'stirish. Kurkalarni kataklarda, yerda va aralash usullarda saqlab, tuxum va go'sht ishlab chiqarish texnologiyalari.</p> <p>14-mavzular. Kurka tuxumi va go'shtini ishlab chiqarish texnologiyasi</p> <p>Kurka tuxumi va go'shti yetishtirishning xususiyatlari, o'rdak jo'jalari xonalarda yoshi bo'yicha ko'chirmasdan bir kunligidan tortib to so'yish yoshiga yetguncha o'stirish, o'rdaklarni 10 kunligacha, 30 kunligacha va so'yishgacha qalin tushmada o'stirish. Kurkalarni kataklarda, yerda va aralash usullarda saqlab, tuxum va go'sht ishlab chiqarish texnologiyalari.</p> <p>15-mavzular. G'oz tuxumi va go'shtini ishlab chiqarish texnologiyasi</p> <p>G'oz tuxum va go'sht yo'nalishidagi zotlari, mahsuldorlik ko'rsatkichlari. G'ozlarni va sesarkalarni saqlash, parvarishlash va oziqlantirish usullari. Parranda tuxumi va go'shti ishlab chiqarishda tutgan o'rni. G'oz, sesarka tuxumi va go'shtini</p>	
--	--

	<p>Farmoni. Toshkent, 2017.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori. Toshkent, 2017 yil.</p> <p>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5598-son Farmoni. (Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018 y., 06/18/5598/2313-son</p> <p>10. Wilson G. Pond, Fuller W. Bazer, and Bernard E. Rollin. Animal Welfare in Animal Agriculture (Husbandry, Stewardship, and Sustainability in Animal Production). Taylor & Francis Group. New York 2011 yae.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www. Ziyo.net.uz.</p> <p>2. www.veterinariya meditsinasi.uz</p> <p>3. www.sea@mail.net21.ru</p> <p>4. www.veterinary@actavis.ru</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan maqullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Yu.A. Ermatov - SamDVMCHBU, "Xususiy zootexniya" kafedras biologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p>D.M. Ibragimov - SamDVMCHBU, "Xususiy zootexniya" kafedras assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.K.Amirov – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Oziq – ovqat xavfsizligi va texnologiyasi" kafedras professori q.x.f.n.</p> <p>A.X.Xatamov- Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot institutining ilmiy ishlar bo'yich direktor o'rinbosari, q.x.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodimi</p>

	(Nizom) asosida olib boriladi.
3.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakillanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Respublika va chet el davlatlarda parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • parrandalarni turlari, yoshi, jinsi, mahsuldorlik yo'nalishi va yil fasllariga muvofiq parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslari, parranda tuxumlari va go'shti ishlab chiqarishda va ularni saqlashda ilg'or texnologiyalarni qo'llash <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • parranda tuxumlari va go'shti ishlab chiqarish va saqlash texnologiyasini, parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishda jadal texnologiyalarni joriy qilish kabi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Islomxo'jayev S.S., Boboyev K.X., G'ulomov K. «Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar». Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 1996 yil.</p> <p>2. D.Scrivener "Popular Poultry breeds" Booshop 2014 England</p> <p>3. Сидоренко Л.И., Щербатов В.И. «Биология кур» Учебное пособие. Краснодар. Куб ГАУ 2016 г.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son</p>

	<p>ahamiyati.</p> <p>16-mavzular. Sesarka tuxumi va go'shtini ishlab chiqish texnologiyasi Sesarkaning tuxum va go'sht yo'nalishidagi zotlari, mahsuldorlik ko'rsatkichlari. G'ozlarni va sesarkalarni saqlash, parvarishlash va oziqlantirish usullari. Parranda tuxumi va go'shti ishlab chiqarishda tutgan o'rni. G'oz, sesarka tuxumi va go'shtini ahamiyati.</p> <p>17-mavzu. Bedana tuxumi va go'shtini ishlab chiqish texnologiyasi Bedananing tuxum va go'sht yo'nalishidagi zotlari, mahsuldorlik ko'rsatkichlari. Bedanalarni saqlash, parvarishlash va oziqlantirish usullari. Parranda tuxumi va go'shti ishlab chiqarishda tutgan o'rni. Bedana tuxumi va go'shtini ahamiyati.</p> <p>18-mavzular. Qishloq xo'jalik parrandalarining tuxumlariga qayta ishlov berish texnologiyasi Qishloq xo'jalik parrandalar tuxumlarini terish, joylash, tashish, saqlash va kolibirovkalash. Parxez, oshxona va past kategoriyadagi tuxumlarni saqlash, savdo rastalariga yetkazib berish tartiblari va shartnomalar. Qishloq xo'jalik parrandalar tuxumlariga qayta ishlov berish tartibi.</p> <p>19-mavzular. Qishloq xo'jalik parrandalarining tuxumlarini markirovkalash texnologiyasi Qishloq xo'jalik parrandalar tuxumlarini terish, joylash, tashish, saqlash va kolibirovkalash. Parxez, oshxona va past kategoriyadagi tuxumlarni saqlash, savdo rastalariga yetkazib berish tartiblari va shartnomalar. Qishloq xo'jalik parrandalar tuxumlariga qayta ishlov berish tartibi.</p> <p>20-mavzu. Qishloq xo'jalik parrandalarini so'yish va qayta ishlov berish texnologiyasi Parrandalarni tashish, so'yishga tayyorlash, so'yish, so'yilgan parrandalarga birinchi ishlov berish. Sovutish, muzlatish, saqlash, (marketing ishlarini tashkil etish) ilg'or ish tajribalar texnologiyasi. Qishloq xo'jalik parrandalarini so'yish va qayta ishlov berishda ishlatiladigan asbop-uskunalar.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tuxum va go'sht yo'nalishidagi parrandalarning ekstereri, konstitutsiyasi, interneri va mahsuldorligi bilan bog'liqligi. 2. Qishloq xo'jalik parrandalarining urchish a'zosi va tuxum hosil bo'lishi. 3. Tuxumning morfologik tuzilishi va kimyoviy tarkibi; 4. Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning mahsuldorligi va sifatini baholash. 5. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarning mahsuldorligi va sifatini baholash. 6. Parrandalarning tuxum va go'sht mahsulotlarini sifatini baholash;
--	--

7. Parranda go'shtining morfologik va kimyoviy tarkibi.
8. Qishloq xo'jalik parrandalarinnig tuxum va go'shtdorlik sifatini baholash.
9. Konservlash, kolbasa, sasiskalar kabi mahsulotlarni tayyorlash texnologiyasi;
10. Parrandalarni so'yish, qayta ishlov berishni mehanik va avtomatlar yordamida amalga oshirish tartibi;
11. Tuxum yo'nalishidagi parrandalarni tuxumlarini inkubatorida ochirishda biologik nazorat o'tkazish tartibi va talablari;
12. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarni tuxumlarini inkubatorida ochirishda biologik nazorat o'tkazish tartibi va talablari;
13. Go'sht va tuxum yo'nalishidagi parrandalarni quruq omixta yem bilan oziqlantirish.
14. Go'sht va tuxum yo'nalishidagi parrandalarni namlangan oziqalar bilan oziqlantirish.
15. Turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarida oziqaga bo'lgan talabini aniqlash.
16. Tuxumlarga baho berish, joylashtirish, saqlash va standartlash;
17. Go'sht va tuxum yo'nalishidagi parranda tuxumlarini inkubatsiyalashga tayyorlash va inkubatsiyalash rejasini tuzish.
18. Nimtalarni sovitish va muzlatkichxonalariga qo'yiladigan talablar.
19. Tuxum va go'sht yo'nalishidagi parrandalar jo'jalarini o'stirish.
20. Broyler go'shti yetishtirish texnologiyasi .
21. Kurka, o'rdak tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
22. O'rdak tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
23. Sessarka, g'oz tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi
24. G'oz tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
25. Bedana tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Tuxum ishlab chikarish texnologiyasida erishilgan so'ngi yutuqlar.
2. Tuxum ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy texnikaviy o'sishi, ilg'or fan va ishlab chiqarish yutuqlarining joriy etilishi.
3. Tuxum ishlab chiqarishda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik va chet el investitsiyalarining jalb qilinishi.
4. Turli mulk shaklidagi parrandachilik xo'jaliklarida ekologik toza tuxum ishlab chiqarish.
5. Parranda go'shti ishlab chiqarish texnologiyasida erishilgan so'ngi yutuqlar.
6. Parranda go'shti ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy texnikaviy o'sishi, ilg'or fan va ishlab chiqarish yutuklarining joriy etilishi .

7. Parranda go'shti ishlab chiqarishda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik va chet el investitsiyalarining jalb qilinishi.
8. Inkubatsiyabop tuxum ishlab chiqarish texnologiyasining asoslari.
9. Parrandalarni oziqlantirishda qo'llaniladigan qo'shimcha oziqalar, tayyorlash, oziqlantirish va zahiralarni o'rganish.
10. Tuxum va go'sht yo'nalishidagi parranda tuxumlarini inkubatsiyalashga tayyorlash va inkubatsiyalash rejasini tuzish
11. Tuxum va go'sht yo'nalishidagi bir kunlik jo'jalarni sifatlash va jinslarga ajratish .
12. Broyler go'shti yetishtirish texnologiyasi.
13. Kurka tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
14. O'rdak tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
15. Sessarka tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
16. G'oz tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
17. Tuyaqush tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
18. Bedana tuxumi va go'shtini yetishtirish texnologiyasi.
19. Parradachilikda zootexnik, veterinariya va sanitoriya tadbirlarini o'tkazish.
20. Parranda mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash.
21. Tuxumlarga baho berish, joylashtirish, saqlash va standartlash.
22. Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishda texnologik xaritani tuzish.

V. Ilmiy amaliyot (stajirovka)

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy amaliyot (Stajirovka):

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalari amaldagi normativ-huquqiy hujjat